

TIKUVCHILIKNING TASNIFI VA KIYIMNING RIVOJLANISH TARIXI

Mamaraximova Zamira Atadjonovna

Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan

2 - son kasb-hunar maktabi, tikuvchilik maxsus fanlari katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Kiyimning rivojlanish tarixi bilan amaliy tajribaning ishonitirishicha odamlarni kiyintirish san'atida mashhur modelyarlardan tortib oddiy ijrochilarga qadar hamma san'atkor bo'lishi kerak. Hatto konstruksiyalash, texnologiya kabi zarur maxsus bilimlar juda zo'r o'zlashtirilgan bo'lsa ham, badiiy vazifalarni tushunmay turib muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: Kiyimning rivojlanish tarixi, tikuvchilik, gazlama, kostyum, gazlama, moda, modelyer.

KIRISH

Tikuvchilik hunari eng qadimiy va eng zarur hunarlardan biri bo'lib. har qanday qo'l hunari singari bu hunarda ham hamma vaqt o'z ishining chinakam san'atkorlari, mashhur ustalari bo'lgan. Hozirgi vaqtda kiyim tikish — bu odamning turmush ehtiyojlariga ham, badiiy talablariga ham xizmat qilishi kerak bo'lgan qudratli industriya tarmog'idir.

Kiyimning rivojlanish tarixi bilan amaliy tajribaning ishonitirishicha odamlarni kiyintirish san'atida mashhur modelyarlardan tortib oddiy ijrochilarga qadar hamma san'atkor bo'lishi kerak. Hatto konstruksiyalash, texnologiya kabi zarur maxsus bilimlar juda zo'r o'zlashtirilgan bo'lsa ham, badiiy vazifalarni tushunmay turib muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. “Uyda tikuvchi”ning yomon ishi bir kiyimgina chitni, shuning bilan birga kayfiyatni buzsa, seriyali ishlab chiqarishdagi bunday ish, mahsulot narxi tushgan mollar bo'limida osilgan qolib, katta iqtisodiy zarar ko'rishga sabab bo'ladi.

Moda nima

Birovlar: “Moda — bu behuda injiqlik, bekorchilarning ermagi”, — deb javob beradi. Boshqalar uchun moda — hunar, kundalik ijodiy ish. Uchinchi birovlar, bu masala unchalik oddiy emas, unga ikki og'iz so'z bilan javob berib bo'lmaydi, deyishadi. Yana birov... Birov axir siz bilan biz-ku, keling biz, modaning nima ekanini, uning qachondan beri mavjudligini va unga qanday munosabatda bo'lish kerakligini aniqlashga urinib ko'raylikchi.

Kostyum tarixiga bag'ishlangan kitoblarning ko'pchiligi qadimgi Misr kiyimlarining tavsifidan boshlanadi. Tosh davrining ibtidoiy odamlari qanday kiyinganini, Afrika, Avstraliyadagi bizga zamondosh tub qabilalar nima kiyib yurishlarini ilmiy asarlardan bilsak bo'ladi.

Tarixiy manbalari qoyalardagi rasmlar, uy-ro'zg'or va ibodat buyumlaridagi tasvirlar, primitiv haykalchalardan tortib to buyuk rassomlik va haykaltaroshlik asarlarigacha, ommaviy matbuot, televideniye, kinemotografgacha juda xilma-xil. Tadqiqotchilar shuchchaki ma'lumot yig'ib qo'ya qolmay, balki ularni sistemaga soladilar, “joy- joyiga qo'yib chiqadilar” — ana shunda eng xilma-xil savollarga javob topadilar.

Aytaylik, savol bunday bo'lsin: ibtidoiy odamlarning kiyimida farq bo'lganmi, yoki sovuqdan, issiqdan, lat yeyish va tiralishdan saqlashga mo'ljallanib, daraxt barglari va hayvon terisidan yasalgan lungilar bir xilda bo'lganmi? Ma'lum bo'lishicha, farqi bor ekan. O'sha vaqtlardayoq odamlar kuchliroq, botirroq, omadliroq kishilarni boshqalardan farq qilib, eng yaxshi terilarni ularga ajratib, maxsus bezaklar bilan yasatib berishar ekan. Qabila boshlig'ining, masalan, tatuirovkasi ham, badanining bo'yog'i ham boshqacha bo'lar ekan.

Insoniyat jamiyati rivojlanib, davlatlar tuzilib, tarixiy forma-siyalar almashib borgan sayin kostyum murakkablasha boradi. Lekin kiyimida boyligi, tabaqasi har xil bo'lgan kishilarning ijtimoiy mavqei yildan-yilga nihoyatda ochiq-ravshan aks eta boradi. Kiyim hamma davrlarda odamning ijtimoiy mavqeidan dalolat beradigan, martabasini bildiradigan sotsial belgi bo'lib kelgan.

Masalan, quldorlik davlatlari bo'lgan qadimgi Misrda, qadimgi Yunonistonda, qadimgi Rimda qullarning kiyimi faqat yalang'ochlikni yashirib, juda bo'lsa yog'ingarchilikdan sal-pal asrab turadigan bo'lgan. Qullarning kiyimi eng dag'al gazlamalardan bo'lgan, poyafzal esa ularga ko'pincha berilmagan. Usha vaqtdagi erkin kishilar o'z martabasiga qat'iy mos kiyinar edi. Cheklash va man etishlar gazlama sifatiga va rangiga, pardozi va bezaklar miqdoriga, kostyumning qanday martaba, qay daraja hokimlik ramzi ekaniga taalluqli bo'lardi. Misr firavnlari va ularning yaqin zodagonlari oddiy ipdan va zig'ir toladan to'qilgan shaffof harir gazlamadan; qohinlar esa qoplon teridan kiyinishar edi. Antik Elladada erkin grajdanlar oq va turli sipo rangli zig'ir tola gazlamadan va yupqa jun gazlamadan; qullar esa bo'yalmagan, dagal, xom surpdan kiyinardilar. Yevropada varvarlik davrida ham, davlatlar tashkil topgan o'rta asrlar davrida ham, kapitalizm vujudga kela boshlagan Uyg'onish davrida ham, burjua revolyutsiyalari yetila boshlagan absolyutizm asrida ham kostyumba oid yozilmagan odatlar va maxsus farmonlar bo'lgan.



2- рasm. Фираон ва уни хотинининг кийими

Farmonlar hukmron sinfning kiyinishdag'i imtiyozlariga so'zsiz rioya qilish uchun chiqarilgan. Masalan, feodallar qiroidan boyroq yasanishga jur'at etmasdilar, boyib ketgan shaqarliklar, savdogarlar esa feodallar bilan raqobatlasha olmasdilar.

Masalan, XV asrda tumshug‘i uzun poyabzal eng moda bo‘lgan. Bunda oyoq kiyim tumshugi uzunligini dehqonlar 6 duymdan, shaharliklar 12 duymdan, dvoryanlar 24 duymdan oshirmasligiga ruxsat etilardi (bir dyuym 2,6 sm bo‘ladi — ana endi o‘zingiz chamalab ko‘ring, oliftalar oyoq kiyimining uchi qanday uzun bo‘lganini!) Poyabzal ingichka tumshug‘ini boldirga, goho qo‘ng‘iroqchalar taqilgan zanjirlar bilan tortib qo‘yilardi.

Milliy kiyimlarni bichig‘iga qarab bir nechta oddiy turlarga ajratish mumkin (4-rasm) — xiton, ko‘ylak, ishton, yubka, sarafan, plashch, xalat, bichilmagan o‘rama-yopqich.

Boshdan kiyiladigan kiyimlar (xiton, ko‘ylak, sarafan) tashlama kiyimlar; yuqoridan pastgacha ochiladigan kiyimlar (xalat, nimcha, plashch) ochilma kiyimlar deb ataladi. Yana yelkada turadigan (tashlamalar bilan ochilmalar) va belda turadigan (yubka, ishton); yaxlit bichilgan, qirqma bel kiyimlar bo‘ladi. Kiyimning asosiy qismi gavidani (stan) bekitib turadi; yeng yoqa, kapyushon shu qismga ulanadi.



4-рasm. Миллий кийимларнинг энг оддий бичимлари:
а — хитонлар (Қадимги Юнонистон);

Agar kiyimning gavda qismi bilan yenglari “T” hafiga o‘xshash bo‘lsa (yenglar tikib ulanganmi yoki gavda qismi bilan yaxlit bichilganmi bundan qat‘iy nazar) uni tunika deb ataladi.

Tarixiy va hozirgi zamon kiyimlarining hammasi mana shu kiyim turlaridan boshlangan.

Kostyum qanday yaratiladi

Bu savolga ham ikki og‘iz so‘z bilan javob berib bo‘lmasligini o‘zingiz ham tushungan bo‘lsangiz kerak. Juda to‘g‘ri — chunki “kostyum o‘zining ko‘p ming yillik tarixida hamma vaqt aynan san‘at asari bo‘lib kelib, ... uning goho haligacha kam o‘rganib chiqilgan xususiyatlari bor davrga muvofiq o‘z badiiy kompozitsiya prinsiplari bo‘ladi” .

Kostyum kompozitsiyasi

Kostyum kompozitsiyasi qator tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Lotincha “composition” — so‘zi tuzish, birlashtirish, bog‘lash degani bo‘ladi. Har qanday san‘at

asari kabi kostyum ham ma'lum qoidalarga muvofiq ishlatiladigan uning o'ziga xos ifoda vositalari yordamida yaratiladi. Ularni batafsil bilib olish uchun bitta kitob o'qib chiqish kamlik qiladi, biz esa kostyum kompozitsiyasining elementlari haqida umumiy tasavvur beramiz va mutaxassislarning ba'zi maslahatlarini keltiramiz.

Shu yerga kelganda keng tarqalgan, lekin xato bir fikrni eslatib o'tish kerak.

Bu — yo'l-yo'l gazlamani to'la gavalilar uchun "uzunasiga", qotma gavalilar uchun esa "ko'ndalangiga" bichish kerak degan fikr. Gazlama yo'llari bu kostyumdagi chiziqlar emas, bu haqda ko'rinish illyuziyalarini gapirganimizda fikr yuritamiz.

Chiziqlarga kelsak, ular kostyumda pala-partish emas, balki bir-biri Kostyumdagi ichki chiziqlar: a — vertikal; b — gorizontal; v — diagonal bilan muvofiqlashib, odam gavdasining tabiiy tuzilishiga mos joylashishi kerak. Bunday "koordinatsiyalangan" chiziqlar yasash — butun bir ilm, to'g'rirog'i, san'at. Tabiat bizga tevarak-atrofimizdagi predmetlarning badiiy qiymatini ko'rish, baholash, taqqoslash mohoratini bergan. Bunda biz tabiatning bir qismi bo'lgan, odamni qurshab kelgan va qurshab turgan tabiat bilan to'qnashamiz. Istabmi yo istamay, onglimi yo ongsiz, biz hamma narsani odamga, uning jismoniy xususiyatlariga, ma'naviy tasavvurlari bilan taqqoslaymiz. Bu ayniqsa bevosita atrofimizdagi predmetlardan iborat — turar joyga, kiyim-kechakka, uy-ro'zg'or predmetlariga taalluqli. Har bir odamga xos bu badiiy idrok etishni rivojlantirish mumkin, ham kerak. O'zingizga ham, boshqalarga ham tuzukroq e'tibor berib, kinga nima "yarashadi" yoki "yarashmaydi" deb, ajratib olishga, asosan esa nega shunday ekanini, buning sababini tushunishga harakat qiling. Bunda sizga qo'lingizdagi kitobda bayon etilgan qisqacha ma'lumotlar yordam beradi.

Kiyimda proporsiya juda katta rol o'ynaydi.

6- rasm. Odam gavdasi va kostyum proporsiyalari ("oltin kesim")



6 — плащ, туника (Классический Рим);

Proporsiyalar — bu kostyum qismlarining o'lchamlariga binoan bir- biriga va odam gavdasiga taqqoslangan nisbatlari. Kiyimning bo'yi, eni ko'krak qismi bilan yubkasining, yenglarining, yoqasining, bosh kiyimining, detallarining hajmi, uzunligi, kostyum kiyilgan qad-qomatni ko'rib idrok etishga, uning o'lchamlari monandligini fikran baholashga ta'sir ko'rsatadi. Inson gavdasining tabiiy proporsiyalariga yaqin bo'lgan nisbatlar eng chiroyli, mukammal, "to'g'ri" ko'rinadi. Ma'lumki, boshning uzunligi kishi bo'yining uzunligiga 8-martacha joylashadi, bel chizig'i esa tanani

taxminan 3:5 nisbatda ikkiga bo‘ladi. Turli yo‘llar bilan tabiatdagi, san’atdagi monandlikni izlagaya qadimgi rassomlar, arxitektorlar, olimlarning tadqiqotlarida, chizmalarida, hisoblashlarida “oltin kesim” tushunchasini uchramiz; bu tushuncha matematik yo‘lda 3:5, 5:8, 8:13, 13:21 va hokazo sonlar nisbati tarzida ifoda etiladi. Bunda kichik qism katta qismga xuddi katta qism butun qismga nisbati kabi bo‘ladi. “Oltin kesim” proporsiyalari eng yaxshi arxitektura asarlarida takrorlanadi, jonli tabiatdk ko‘p marta uchraydi — ya’ni qonuniy, doimiy hisoblanadi. Odam figurasi orasida ham mana shu proporsiyalar (alohida qismlar nisbati) takrorlangani eng proporsional hisoblanadi. Kostyumda ham xuddi shunday.

Kostyumda tabiiy proporsiyalar ham, ataylab buzilgan proporsiyalar ham ishlatish mumkin. Bu yerda turli variantlarni batafsil ko‘rib chiqishning iloji yo‘q, chunki buning uchun kompozitsiya qonunlarini jiddiy o‘rganish kerak. Tabiiy proporsiyalar, odatda, har qanday figura uchun “foydali” ekanini yodda saqlash kerak; ayni vaqtda kiydirib ko‘rish vaqtida biron chiziqni sal nari-beri surib, “izlab ko‘rib” (masalan, bel chizig‘ini ozroq ko‘tarish yoki tushirish, yelkalarni toraytirish yoki kengaytirish, ko‘ylak, yeng uzunligini, yoqa, cho‘ntaklar, belbog‘ o‘lchamini sal o‘zgartirish mumkin) gavda tuzilishi kamchiliklarini “tuzatish” mumkin. Rangning bu va boshqa hamma xususiyatlaridan rassomlar foydalana- dilar. Rasmning real hajmi yo‘q — u yassi holatda, taxtada, qog‘ozda bo‘ladi. Lekin ustaning san’ati shu qadar zo‘rki, rasm unga qaragan odamda fazo, havo illyuziyasi, x;atto harakat illyuziyasi hosil qilibgina qolmay, atrofimizdagi narsalar olamidagi predmetlarning fakturasini ham bizga bildirayotganday ko‘rinadi.

Kostyum yaratilayotganda rang xususiyatlari albatta hisobga olinadi. Ochiq, sof, iliq ranglar predmetni yaqinlashtirganday va kattalashtirganday bo‘lishi bilan bir vaqtda uni yengilroq qilib ko‘rsatadi. To‘q, sovuq ranglar uzoqlashtirish va kichiklashtirish bilan birga og‘irlashtiradi ham.

Kostyumda rang tanlashga oid amaliy, hayotiy masalalarni yecha- yotganda, ba’zi oddiy qoidalarni (rioya qilish hamma vaqt shart bo‘lmasa ham) unutmaslik kerak. X,ar bir alohida holda amaliyot, tajriba, hatto yanglishishlar ham (bordi-yu to‘g‘ri saboq chiqarilsa) masalani hal qilishga yordam beradi.

Har qanday odamning tashqi ko‘rinishi, shu jumladan, badani, ko‘zi, soch tuslarining uyg‘unlashuvi bo‘ladi. Kiyimning rangi ana shu tuslarni kuchaytirganday ularni takrorlashi yoki, aksincha, ularga qarshi qo‘yilib, taqqoslanib, ularni bo‘rttirib ko‘rsatishi — lekin albatta monand qilib, ya’ni g‘ashga tegmaydigan, chiroyli qilib ko‘rsatishi mumkin. Agar shaxsan o‘zingizga qandaydir rang ma’qul bo‘lsa, bu hali xuddi shu rang sizga yarashadi, degan so‘z emas. Arap magazinda biron gazlama ta’bingizga yoqib qolgan bo‘lsa, uning kattakon polotno tarzida stendda turganda emas, balki gavdaga kiyilganda, aynan o‘zingizning gavgangizga kiyilganda qanday ko‘rinishi hali ma’lum emas.

Hammaga to‘g‘ri kelaveradigan maslahat bo‘lmaydi. Lekin bir-biriga yaqin turgan, Ya’ni o‘xshash ranglar va kontrast, qarama-qarshi ranglar mavjudligini hamma bilishi kerak. Masalan, sinovlardan o‘tgan quyidagi ranglar aralashmasi ko‘zga yaxshi ko‘rinadi: jigar rang — tilla rang — sargish yashil; jigar rang — och sariq — sarg‘ish oq; ko‘k — qizil — oq; qora — oq, bunga yorqin ranglar (zarg‘aldoq rang,

feruza, tilla rang, pushti rang) qo‘shilsa ham bo‘ladi; har xil kul ranglarning oq bilan, rangdor tuslar bilan birga qo‘shilgani.

Ifoda vositalarini, ayniqsa yangi modellarda izlaganda, hamma vaqt har mavsumga yetakchi gamma tanlanadi. Bunda sizning kashfiyotchiligingizga ham keng yo‘l ochiladi, sinab ko‘rish, fantaziya qilish imkoniyati ham, “kutilmaganlik” prinsipiga binoan ranglarni to‘q ko‘k — och yashil, bo‘tako‘zrang — anorrang, “kolbasarang” — xantal rang kabi birga qo‘shish imkoniyati ham bor!..

Ba‘zi ranglar bir-biriga qo‘shni bo‘lishga “chidamaydi”. Aytaylik, bir rangning iliq va sovuq tuslarini yonma-yon qo‘yishga — masalan, sargish yashil bilan ko‘kish yashilni, zarg‘aldoq tusli qizil bilan to‘q qizilni yonma-yon qo‘yishga hojat yo‘q. To‘q qizil bilan sariq, zarg‘aldoqrang bilan to‘q qizil, sariq bilan ko‘k, yashil, qizil yonma-yon turishi dag‘al, g‘ashga tegadigan tarzda ko‘rinishi mumkin; kostyumga sariq rang umuman juda ehtiyotlik bilan kiritilishi kerak.

Ranglarning uyg‘unligining mos yoki mos emasligini bilishga yordam beradigan jadvalni keltiramiz; to‘g‘ri, ko‘p narsa har bir rangning konkret tusiga bog‘liq — bunday tuslar esa juda ko‘p.

Kiyim — birinchi zarur narsa, u turli sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladi, juda katta magazin tarmoqlarida esa sotiladi. Shunday qilib, moda — iqtisodiy hodisa.

Har bir kishi modani o‘zicha idrok etadi; bu uning yoshiga, tarbiyasiga, e‘tiqodiga, madaniyatiga, tabiatiga, xullas — shaxsiyatiga boglis. Moda har birimiz uchun ichki dunyomizning bir qismi, psixologik hodisa; unga munosabat, uni tanlash esa — ma‘naviy hodisa deb, tariflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi nizomiy nomidagi toshkent davlat pedagogika universiteti N.S. Gaipova, M.Z. Ismatullayeva, A.S. Axmetova- “Tikuvchilik texnologiyasi asoslari”

2. R. Egorova. “BICHISH-TIKISHNI O‘RGANING” - qo‘llanma. Toshkent “O‘qituvchi” 1991- yil.